

Sarvar Raimberdiyev turnirdagi ishtiroki, nega bu oliygohni tanlagani, chempionlik siri, amalga oshmay qolgan ilk orzusi haqida fikr bildirdi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich talabasi, futbol jamoamiz sardori Sarvar Raimberdiyev turnirdagi ishtiroki, chempionlik haqida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

– Futbolga sizni kim qiziqtirgan?

– Futbolga olilaviy qiziqish bo'lgan. Dadam, amakilarim yoshligidan shu sport turi bilan shug'ullangan. “Qonda bor” deyishadi-ku, menga ham qiziqish ulardan o'tgan bo'lsa kerak. Birinchi murabbiyim – amakim Jabborov Otajon. 8 yoshimdan to'p tepishni boshlaganman.

– Nega aynan Madaniyat institutini tanlagansiz?

– Aslida bu oliygohda o'qish xayolimda yo'q edi. O'zbek tili

va adabiyoti yoki Pedagogika universitetida o'qishni maqsad qilgandim. Taqdirimga shu dargoh bitilgan ekan. Har qanday joyda mehnat qilgan kishi qadr topadi.

– **Sardorlik mas'uliyati haqida fikr bildirsangiz.**

– Buning mas'uliyati katta. Jamoada mendan kuchliroq, aqlliyoq, yoshi kattaroq bo'lgan futbolchilar bor. Lekin bunday o'yinchilarni birlashtirishning o'zi bo'lmaydi. Eng muhimi, jamoada ichki muhit yaxshi.



– **Qanday oilada tug'ilib o'sgansiz?**

– Oddiy oilada voyaga yetganman. Oilamizda ilm qadrlanadi. Dadam bog'bon, onam esa o'qituvchi.

– **Chempionlikka nimaning hisobiga erishdingiz?**

– Ilk navbatda, bizda ichki muhit ajoyib. Yigitlarning hech

biri o'zini boshqadan ustun qo'ymaydi. Bir-biriga quloq tutadi. Yana bir jihat, biz har o'yinga "Bugun yoki hech qachon" shiori ostida final singari yondashdik.



– Institut rahbariyati musobaqa oldidan mukofot va'da qilganmidi?

– Turnir avvalida rektorimiz bilan uchrashuv o'tkazgandik. Bizga yirik mukofot va'da qilishdi. Biroq mukofot biz uchun ikkinchi darajali masala. Birinchi navbatda, institut sha'ni uchun kurashdik.

– Murabbiy haqida nima deya olasiz?

– 116 ta oliygoh ichida yagona ayol murabbiy bizda edi. Dilorom Tavakulovnaga alohida minnatdorchilik bildiramiz. Ustozimiz jamoaga motivatsiya bag'ishladi.



– Agar imkon bo’lsa, professional futbol bilan shug’ullanarmidingiz?

– Menimcha, har qanday havaskor o’yinchi buni orzu qilsa kerak. Bu yoshlikda ushalmay qolgan dastlabki orzuyim sanaladi.

– Sovrin yoki institut sha’ni, qay birini tanlaysiz?

– Taqdirlanish yomon narsa emas, lekin sha’nimiz birinchi darajada turadi.



– Respublika bosqichi haqida nima deya olasiz?

– Jamoamizda kayfiyat a'lo darajada. Natija uchun kafolat berolmayman, muhimi, bosimiz o'yin namoyish etamiz. Xudo xohlasa, yaxshi natijaga erishamiz.